IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

DIDAKTIK TAMOYILLAR DARSLIK TAHLILIDA

Gulchehra Sagdiyevna Shaxaldarova
O'zbekiston Milliy Universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya:

Ushbu tadqiqot ishi chet til darsliklarida didaktik tamoyillar tatbig'i tahliliga qaratilgan bo'lib, bunda biz individuallik, onglilik, ko'rgazmalilik tamoyillar jumladan, chet til o'qitish jarayonida tamoyillar tatbig'i muhim omil ekanligiga va uning tahlili xususida.

Kalit so'zlar:
kompetensiya, kommunikativ, ko'rgazmalilk, onglilik, individuallik.

Respublikamizda G'arb Yevropa tillaridan (ingliz, ispan, nemis, fransuz) ikkinchi til sifatida umumta'lim maktablarida o'qitib kelinmoqda. Tilni o'qitish va o'rganish turlicha kechadi.

1. Ona tilida tafakkur qilinadi, boshqa tilni o'rganish chog'ida ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog'liqdir;
2. O'rganish ketma-ketligi ona tilidan boshlanib, keyin ikkinchi tilga va nihoyat, chet tilga o'tadi;
3. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi.

Chet tildagi muloqot o'qituvchi tomonidan o'quvchiga asosan dars jarayonida beriladi. Chet til ta'limi maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quv materiallarini tashkil etish, ta'lim metod va usullari, innovatsion texnologiyalargan foydalanish, til o'rganuvchining bilim, malaka, ko'nikmalarini nazorat qilish o'qituvchining zimmasidagi vazifadir.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk, bilimli qilib tarbiyalash. Umumta'lim maktablarida chet til til o'qitish jarayonini yanada takomillashtirishdek maqsadga erishish. Hozirgi kunga kelib, maktablarda chet til faniga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ingliz tili 1 sinfdan fan sifatida kiritilgan. Shu sababdan, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratish ularni zamon talabiga javob beradigan qilib ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. New Fly High 5 darsligi 2017 yildan boshlab respublikmiz o'rta maktablarida darslik sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Darslik Fly High 5. 2000 darsligining yangi avlodi bo'lib, Davlat ta'lim standartlari, British Council O'qituvchi nashriyoti uyi tomonidan chop etlgan. New Fly High 5 darsligi avvalgi darslikdan ancha farq qiladi. Yangi darslikda yangi metodlar, innovatsion texnika va texnologiyalar asosida ishlangan. Dars soatlari 102 saoni tashkil etib, 13 ta Unit dan tashkil topgan. New Fly High (5-sinf) O'UM ham

1) o'quvchi kitobi darslik,
2) o'quvchi kitobi,
3) mashq daftari,
4) multimediya vositalaridan tashkil topgan.

Darslikda shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv (leaner–centered approach) ga ahamiyat berilgan bo'lib, o'quv dasturiga ko'ra CEFR ning A2 boshlang'ich darajasida o'quvchi kommunikativ kompetensiyasini zamonaviy kommunikativ metod va texnologiyalar yordamida rivojlantirishga

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

qaratilgan. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tillarini o'qitish, 2013 boshlab quyi (1-4 sinflar), o'rta (5-8 sinflar), yuqori (9-11 sinflar) bosqichlarda amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, tadqiqotimiz ob'ekti hisoblangan 5 sinflarda barcha kompetensiyalar teng baravar rivojlantiriladi. 5 sinf uchun mo'ljallangan ushbu majmua zamonaviy chet til o'qtish metodikasining ilg'or, dunyo tan olgan yondashuv va metodlari texnalogiyalaridan foydalangan xolda yaratilgan bo'lib o'quvchi shaxsining nutq kompetensiyasini rivojlantirish va tarbiyalashda boshqa predmetlar qatorida o'z o'rniga ega. O'zbekistonning ko'p millatli, ko'p tilli va madaniyatli sharoitida chet tilni uning madaniyati bilan uyg'un xolda qiyoslab ushbu majmuada ham ifodasini topgan. Ushbu darsliklarda ko'zlangan kommunikativ maqsadga muvofiq ravishda ta'lim mazmuni tanlab olingan, tasniflangan, tasdiqlangan va taqdim etilgan bo'lishi lozim. Metodik adabiyotlarda chet til o'qitish mazmuni borasida hozirga qadar turli qarashlar mavjud. Bunday bo'lishi tabiiy xol, chunki jamiyat rivojlanishi tarixining turli davrlar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'lim mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bugungi kun zamonaviy chet til o'qitish metodikasida ta'lim mazmuni ko'zlangan til va madaniyatni integrallashgan holda o'rgatish va bunday multimadaniy va multilingval sharoitda bemalol muloqot olib bora oladigan o'quvchi shaxsini kamol toptirish maqsadiga mos ravishda tanlab olinadi.

Darslikni tanlil qilish barobarida didaktik tamoyillar ya'ni prinsiplar haqida to'xtalib o'tamiz. Dars jarayonining asosiy qismi ko'rgazmali vositalar yordamida olib boriladi. Shunga ko'ra ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida bolalarga kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish imkoniyatini berish lozim. Kuzatish, sezish ongda faktlarni to'plash, tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi. Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshitish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi.

Ushbu prinsipni asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L. V. Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Onglilik va faollik tamoyili. "Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda, o`rganilayotgan temaga oid qonuniyat, ta`rif va faktlarni asosli egallash, xulosa va umumlashlarni chuqur, atroflicha fahmlash, tema yuzasidan bilimlarni izchil va to`g'ri bayon qila olish, bilimlarning ishonch va e`tiqodga aylanishi, o`rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana bilish kabilar tushuniladi. Onglilik bilimlarni ongli o`zlashtirishga yo`nalgan printsipdir. Bilim malakalarni ongli o`zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega: ta`limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash; faktik materiallarni ongli egallash va ularni o`zaro farqlay bilish; bilimlarni o`rganish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarini sezish; tema yuzasidan o`zi erishgan natijalarni baholay bilish.

Darslikda individuallik, onglilik, ko'rgazmalilik, prinsipini ta'minlanganligini o'ragnish quyidagi didaktik talablarga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun mosligi, ya'ni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi;
2. Komunikativ kompetensiya uchun zarur muammoli nutq vaziyatlarini hosil qilishga yaroqliligi;

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

3. O‘quvchining yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan xolda uning diqqatini, motivatsiyasini, qiziqishini, fikrlash madaniyatini, abstrakt tafakkurini rivojlantirish uchun mo‘ljallanganligi;

4. Mazmundorligi, autentligi, dolzarbligi, estetik qiymati;

5. Sifatli poligrafik qiymatga egaligi.

Sanab o‘tilgan didaktik talablar asosida yaratilgan yoki tanlab olingan vositalardan foydalanish ko‘rgazmalilik prinsipining ta’limda samarali tatbiq etilishini ta’minlaydi.

Chet tilni o‘qitishda individuallik, onglilik, ko‘rgazmalilik prinsipi yuqorida takidlab o‘tilganidek, o‘quvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida nutqiy vaziyat yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi lozim. Tahlil qilinayotgan tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun berilgan mashqlarni ko‘rib chiqishdan avval darslikdagi barcha mashqlarning miqdori umumiy xususiyatlari va individuallik, onglilik, ko‘rgazmalilikdan foydalanganlik darajasini aniqlash lozim.

Shunday qilib, chet til ta’limining barcha bosqichlarida prinsiplarga amal qilish xotira, tasavvur, tafakkur, bilish, nutq, mustaqil izlanish, o’z-o’zini boshqarish, holis baholash intelektual salohiyatni shakllantirishga vosita bo’lib xizmat qiladi va chet tilda mustaqil muloqot qila olish ijodkor, salohiyatli o’quvchilarni tarbiyalashdek maqsadga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Jalolov. J. Chet til oqitish metodikasi. “O’qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi./ Toshkent - 2012.

2. Jorayev. L. Xan. S, Kamilovna. L, New Fly High English 5. “O’qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi./ Toshkent - 2017.

3. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages: Learning. Teaching. Assessment. Strasburg - 2001.

4. https://uzswlu.uz/

5. https://fayllar.org/bob-pedagogikaning-umumiy-asoslari-ozbekiston-respublikasi-tal.html?page=6

6. https://english-life.uz/onglilik-va-faollik-tamoyili/

WORDLY KNOWLEDGE